

## Millat tanlamas illatlardan ogohlik

2-Talabalar turar joyi to'rtinchi va beshinchi qavat foyesida GTS, QSXEA fakulteti talabalari bilan "Biz yoshlар OITSga qarshimiz" mavzusida davra suhbatи bo'lib o'tdi. OIV (VICH) - Odam organizmidagi Immunitet tanqisligini keltirib chiqaruvchi virus. Asosan odamning immunitet (himoya) tizimiga ta'sir qiladi. OITS (SPID) - Orttilgan Immunitet Tanqisligi Sindromi. U OIV infeksiyasining yakuniy bosqichi hisoblanadi. OIV-infeksiyada odam organizmiga tushgan virus ta'siriga immunitet tizimi ma'lum darajada javob qaytaradi. Kasallik alomatlari deyarli bo'lmaydi. Uni faqat laboratoriya tekshirishlari ko'rsatadi. Virus miqdori oshib, immun tizim sustlashib ikkilamchi kasalliklar rivojlanishi mumkin. Shu vaqtan OITS davri boshlangan hisoblanadi. Bu davr uchun xos bo'lgan alomatlар yo'q. Zeroki, bu davrda organizmda duch kelgan mikrob kasallik qo'zg'atishi mumkin. Shuning uchun bu davr tuzalishi qiyin bo'lgan turli-tuman kasallik alomatlari bilan namoyon bo'ladi. Infektsiya yuqqan dastlabki davrlarda odam o'zini sog'lom his etishi mumkin. Bunday holat hech qanday alomatlarsiz 8-10 yilgacha cho'zilishi mumkin. Bu davrda odam sog'lomdek ko'rinsa ham, o'zi bilmagan holda, kasallik virusini boshqalarga yuqtirish xavfi yuqori. Kasallik qaysi yo'llar bilan yuqadi? Virus infeksiya yuqqan odamning qonida, erkaklarning

1. Qon orqali (parenteral yo'l) 2. Jinsiy aloqa orqali 3. Kasallik yuqtirgan onadan homilaga vertikal yo'l bilan homiladorlik davrida (jarohatlangan yo'ldosh orqali) homilaga, tug'ruq jarayonida (tug'ruq yo'lida ona qoni orqali) va ona suti orqali chaqaloqqa yuqishi mumkin.

Qaysi hollarda OIV yuqmaydi?

Qo'l berib ko'rishganda, quchoqlashganda;

Yo'talganda, aksa urganda;

Umumiyl foydalanganda;

Hashorotlar chaqqanda;

Basseyn, hammom, hojatxonadan umumiyl foydalanilganda;

Umumiyl idish-tovoqdan;

Kiyim-kechak va ko'rpa - to'shak orqali.

2017-yili O'zbekistonda taxminan 1900 kishi OITS tufayli vafot etgan. Bu haqda BMTning OIV/OITS bo'yicha birlashgan dasturi — YuNEYDS ma'lumotlariga tayanib, AQShning O'zbekistondagi elchixonasi ma'lum qildi. Tarbiyachi-pedagog, psixolog Sagdullayeva Dilorom davra suhbatи olib bordilar. GTS , QSXEA fakultet talabalari savol-javoblarda faol ishtirok etshdi.



**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**